

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYASINING JURNALISTIKADA YORITILISH MUAMMOLARI

**Rimbayeva Gulrux Xudoyshukur qizi**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

**Rimboyeva Nafosat Xudoyshukur qizi**

Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti talabasi

Email: [gulruxrimbayeva@gmail.com](mailto:gulruxrimbayeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining ekologiyasi, unda sodir bo‘layotgan muammolar va ularni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada ekologik muammolar ommaviy axborot vositalari orqali yoritish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekologiya, jurnalistika, jurnalist, texnika va texnologiya, sanoat, Amudaryo kurakburuni, meditative jurnalistika, multimedia, ekologik madaniyat, yashil makon, ekologiya qo‘mitasi, atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi.

**Abstract:** this article provides an idea of the ecology of the Republic of Uzbekistan, the problems that occur in it and their coverage through the media. The article also developed proposals and recommendations for lighting environmental issues through the media.

**Keywords:** Ecology, journalism, journalist, technology and technology, industry, Amudarya kurakburuni, meditative journalism, multimedia, environmental culture, Green Space, Ecology Committee, State Committee for Environmental Protection.

Hurmatli prezidentimiz 2022-yil 2-fevraldagi videoselektrida shunday degan edi: “Bugun dunyo miqyosida texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan

XXI asrda ekologiya bog‘liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Biz bu masalada faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o‘ylab ish tutmasak, ko‘zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Biz bu yo‘lda aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur”. Mana shu fikrdan ham bilishimiz mumkinki ekologiya mavzusi O‘zbekiston uchun dolzarb mavzudir. Albatta uni yoritishda bevosita jurnalistlarning o‘rni kattadir. Jurnalistlar ayni bu mavzudagi bor haqiqatni ochiq oydin va sodda tarzda bayon etishi shartdir. Hozirgi kunda bizda shunday jurnalistlarga ehtiyoj katta va har bir jurnalist prezident himoyasidadir. Ekologiya sohasi va bu sohada olib borilayotgan ishlar respublikamizda talaygina. Bulardan maqsad, albatta, aholiga bu boradagi ishlar yuzasidan ma’lumotlar berib borish va ularda ekologiyani asrash, uning qadriga yetishni keng targ‘ib qilishdir. Ekologik yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan va tabiat muhofazasi borasida ommaviy axborot vositalarida mavjud, ruknlar, sahifalar, mavzular aniqlandi. Bular qatorida quyidagi nashrlarga e’tiborimizni qaratdik:

“O‘zbekiston ekologik xabarnomasi”, “Tabiat va hayot”(Navoiy viloyati) gazetasi, “Тошкент”, “Dunyo bo‘ylab”, “O‘zbekiston”, “Oilaviy”, “Bolajon”, “Mahalla”, “Yoshlar” telekanallarida maxsus ko‘rsatuvlar; “Dunyo bo‘ylab”, “Mahalla”, “O‘zbekiston”, “O‘zbekiston 24”, “Yoshlar”, “Oilaviy” telekanallari, “Mahalla” va “O‘zbekiston” radiokanallari.

"Dunyo bo‘ylab" telekanalida efirga uzatiladigan “Efirda biz” ko‘rsatuvining ayrim sonlari ekologiyaga bag‘ishlanadi. Xususan mart oyida efirga berilgan Amudaryo kurakburuni haqidagi ko‘rsatuv bunga misoldir. Kurakburun noyob jonzor bo‘lib, aholi o‘rtasida: “Uni tug‘maydigan ayollar yesa davo bo‘ladi” qabilidagi gaplar ko‘payib, ovlanish miqdori keskin oshib ketganligi haqida aytib o‘tiladi.

“O‘zbekiston” telekanalida efirga beriladigan “Mening bog‘im” ko‘rsatuvi ham ekologiya mavzusini ma’lum ma’noda yoritadi. Ya’ni yerni qanday parvarish qilish kerak, qaday yerga qay turdagi o‘simliklar, daraxtlar mos kelishi va ularni qay tarzda sug‘orish shular haqida keng ma’lumotlar berib boriladi.

Boshqa telekanallarda doimiy turda ekologiya mavzusi yoritiladigan ko‘rsatuv deyarli mavjud emas. Bu kanallarda mavsumiy tarzda ekologiya mavzusi yoritiladi. Aslida har bir telekanalda bitta ekologiya va undagi muammolarga bag‘ishlangan ko‘rsatuv bo‘lishi kerak. Chunki ekologik muammolarni oldini olishda ekologik madaniyatni shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Dunyo televideniyasiga nazar soladigan bo‘lsak, Qozog‘iston telekanallaridan birida "Qizil tugma" nomli ko‘rsatuv mavjud. Bu ko‘rsatuv 20-25 daqiqa davom etadi. Lekin shu vaqt mobaynida jurnalistlar tomonidan turli xil ekologik muammolar o‘rtaga tashlanib, ularga ma‘lum ma‘noda yechim topiladi. Bizga ham shunga o‘xshash ko‘rsatuv, albatta, kerak. Va bu ko‘rsatuvlarni rivojlantirish uchun mediativ jurnalistlar zarur.

Radiokanallar ham shunaqa. Ya‘ni mavsumiy tarzda yoritiladi. Masalan Qoraqalpog‘iston radiosi misolida oladigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘istonda keng miqyosda “Yashil makon umummilliy loyihasiga start beildi va shu kundan boshlab, to loyiha yakunigacha har kun radioda jaranglab turdi. Loyiha yakuniga yetkach mavzu ham tugaydi.

Bosma ommaviy axborot vositalaridan “Mahalla” gazetasining 2021-yil 32 -sonida Saidali Muxtoraliyev tomonidan “Ekologiya qo‘mitasida amalda mustaqillik yo‘q” nomli tanqidiy maqola e‘lon qilinadi. Ushbu maqolada qator ekologik muammolar, ularning nega o‘z yechimini topa olmayotgani haqida so‘z boradi va bu borada 2 ta sabab ko‘rsatadi. Ya‘ni:

1-sabab. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Qurilish Vazirligi, Transport Vazirligi, Uy-joy Kommunal xizmat Ko‘rsatish vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi. Demak, birinchi Sabab mana shu. Ya‘ni Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi Atrof-muhit sohasidagi eng ko‘p qonunbuzarliklar bo‘ladigan, Eng ko‘p daraxtlarni Kesadigan davlat Idoralari bilan bir Qatorda turibdi.

2-sabab. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasining Hududiy organlari Rahbarlari o‘sha hududdagi hokimlarning Roziligi bilangina,

lavozimga tayinlanadi. Bu nima degani? Qarang, axir joylarda ekologiya sohasidagi asosiy qonunbuzarliklar hokimlarning O‘zbo‘larchiligi yoki ekologiya sohasini ikkinchi darajali Soha, deb bilishlari Tufayli kelib chiqayotgani bor haqiqat-ku!Shular haqida yoziladi maqolada.

Lekin bu gazetalarda ekologiya mavzusi har bir sonda yoritilmaydi.

“Oila davrasida” gazetasi tahririyati muassisligida chiqadigan O‘zbekiston Ekologik partiya markaziy kengasining nashri Hisoblanmish “Oila va Tabiat” gazetasi To‘laligicha ekologik gazetadir. Bu gazetaning har bir sonida Ekologiya, undagi o‘zgarishlar, ekologik muammolar haqida yoritib beriladi. Ushbu gazetada yana “To‘y to‘yday bo‘lsin! To‘ydagi tirik baliqlarning dovrug‘ini yeti mahalla eshitsin” sarlavhali maqola esa bizning to‘larimiz haqida so‘zlaydi. Yani bitta to‘y deb bechora jonzotlarning umriga zomin bo‘layotganimiz yozilgan. Maqolada keltirilishicha baliqlarni yoritgich ichiga solib sotishayotgan ekan. Mutaxassislar fikricha bu holat baliq umruni qisqartirar ekan. Baliqlarning o‘lishi esa albatta shu turning kamayishiga olib keladi va oxir oqibat shu tur yo‘qolish sari yuz tutishi mumkin. Bundan tashqari, bu gazetada bog‘dorchilik, dehqonchilik haqida ham keng ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Ko‘rib turganimizdek ekologiya sohasini yoritish O‘zbekiston miqyosida hali ham oqsamoqda. Negaki, hali hamon bu mavzu barcha OAV tomonidan to‘liq yoritilmaydi. Biz ekologik muammolarni kamaytirish, ekologik madaniyatni oshirish borasida katta yutuqqa erishmoqchi bo‘lsak albatta bu mavzuning OAV ning har bir yo‘nalishida keng tarzda bera olishimiz zarur!

Ekologiyaga oid mahsulotlarni yoritishda Xususiy va ekologik tashkilotlarning saytlari ham bir muncha faol faoliyat olib boradi. Bu saytlarda ma’lumotlarni tarqatish tezligi yaxshi. Va har birida deyarli multimedia vositalaridan to‘g‘ri va keng miqyosda foydalaniladi. Televideniya va radioga nisbatan saytlar va bloglar faol hisoblanadi. Ularning ko‘plab aholi qatlamining kuzatib borishining sababi ham ayni shu multimediami vositalarning uyg‘un holda o‘quvchiga yetkazib berilishidadir.

Bir soʻz bilan aytganda, Ekojurnalistikada multimedia vositalardan foydalanish ahamiyati katta ekan. Jurnalist bu orqali tasirchanlikka, toʻgʻri tasir etishga va keng auditoriya toʻplashga xizmat qiladi.

Demak, hsr bir boʻlajak jurnalist har qanday sohada multimedia bilan ishlay olishi kerak ekan. Axir jurnalist uchun har bir yozgan asari-yu, tayyorlagan video yoki audiomahsuloti qadrlidir va ular auditoriya tomonidan ham iliq kutib olinishi kerak.

Ekologik jurnalistikaga qadam qoʻygan va ekologik muammolarni yoritishga bel bogʻlagan jurnalistlarga, albatta , Ekologiya va uning ahamiyatini alohida va chuqur oʻrgatish, multimedia vositalarini uygʻunlashtirishning foydalari haqida va undagi yangi koʻnikmalarni chuqur oʻrgatish, OAV ning har bir sohasida multimedia vositalaridan keng va oʻrinli foydalangan holda jurnalistik material tayyorlash koʻnikmalarini shakllantirish kerak.

Ekojurnalistika istiqbollari ham ayni mana shu mutimediani uygʻunlashtira olishda koʻrinadi aslida!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)**

1. <https://daryo.uz/2018/02/02/shavkat-mirziyoyev-ekologik-holatni-yaxshilash-va-atrof-muhitni-muhofaza-qilish-masalalariga-bagishlangan-yigilish-otkazdi/>
2. N.Qosimovanning “ Ekologiya jurnalistikasi Oʻzbekiston: tipologiya, muammolar va ekologik madaniyat” maqolasi ;
3. "Oila va tabiat" gazetasi